

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI UCHUN DAVRA SUHBATI:

“KIYINISH ODOBI”

Davra suhbatining maqsadi:

- Bolalarga kiyinish odobini o‘rgatish;
- To‘g‘ri va ozoda kiyinishga, kiyimlarni ehtiyot qilishga, kir qilmaslikka, saranjom saqlashga o‘rgatib borish.

Kutilayotgan natija:

- Kiyimlarni to‘g‘ri kiyish ko‘nikmasi shakllanadi;
- Kiyimlarni ozoda saqlash kerak ekanligini anglaydi;
- Kiyimlarni tartiblashni o‘rganadi.

Bolalarda ozoda va tartibli bo‘lishga odatlanish shakllanadi. Kiyimdagi betartiblikka (tugmachaning noto‘g‘ri qadalgani yoki yechilib ketgani, yoqaning qayrilib qolgani, oyoq kiyimining loy yoki changligi) e‘tibor berish rivojlanadi. Ko‘zguga qarab, kiyimini tartibga keltirishi, ularni mustaqil to‘g‘rilash yoki yordam so‘rab kattalarga murojaat qilish ko‘nikmasi shakllanadi.

Kerakli jihozlar:

- Kiyinish odobi mavzusiga oid rasmlar.

Davra suhbatining davomiyligi: 7-10 daqiqa.

KIRISH QISMI:

Tarbiyachi: Bolajonlar, bugun sizlar bilan kiyinish odobi haqida suhbatlashamiz.

Har kuni ertalab oyingiz sizni bog‘chamizga toza va ozoda kiyintirib olib keladi. Siz bu kiyimlarni kir qilmay, tugmalarini o‘ynab uzmay, ovqatlanayotganingizda ovqatlarni to‘kmay, cho‘ntaklarini yirtmay kiyishingiz kerak. Bolajonlar, mana bu rasmlarga qaranglar. Bular nimasi bilan bir-biridan farq qiladi?



Tarbiyachi: Bolajonlar, rasmda ko‘rsatilgan bolalar qanday kiyingan? Ularning kiyinishida qanday farqlar bor?

Bolalar: Biri ozoda va chiroyli. Ikkinchisi kir, xunuk kiyingan.

Tarbiyachi: Yaxshi bolalar doimo kiyinish odobiga rioya qiladilar. Siz ham hamisha kiyinish odobiga rioya qiling. Endi esa mana bu rasmlarga qarang.





Tarbiyachi: Bolajonlar, biz ko‘rayotgan rasmlarda ozoda, saranjom kiyingan bolalar ko‘rsatilgan. Rasmlarga qarang, odobli bolalar qanday kiyinyaptilar? Kiyimlarini qanday saqlayaptilar? Mana bu qizcha qo‘g‘irchog‘ini tartibli kiyintiryapti. Tartibli kiyinish qanday bo‘ladi? Avval nimani egnimizga kiyishimiz kerak? Ko‘ylaknimi, oyoq kiyimnimi, bosh kiyimimiznimi?

Bolalar javobi tinglanadi.

“Kiyimlarni taxlab qo‘y”

Tarbiyachi: Bolajonlar, uxlash oldidan kiyimlarni yechib, pijamalarni kiyib olasiz. Yechinganda kiyimlaringizni yechib, chiroyli qilib o‘rindig‘ingizga taxlashingiz kerak.

Tarbiyachi kiyimlarni taxlab qo‘yishni ko‘rsatadi.

Uyqudan turganingizdan so‘ng yana tartib bilan kiyimlaringizni kiyib olasiz. *Tarbiyachi kiyimlarni qanday kiyish kerakligini ko‘rsatadi.*

INTERFAOL O‘YIN: “To‘g‘ri kiyindi – noto‘g‘ri kiyindi”

Maqsad:

Bolalarda kiyimlarni to‘g‘ri kiyish, noto‘g‘ri kiyinishni ajratish, ozodalikka e‘tibor berish ko‘nikmasini kuchaytirish.

O‘yin uchun kerakli jihozlar:

– *Ikki xil rasm:*

1. *Toza, tartibli kiyingan bola*
2. *Tugmasi yechilgan, yoqasi qayrilgan, paypog‘i noto‘g‘ri kiyilgan yoki kir kiyimdagi bola*

O‘yin jarayoni:

1. Tarbiyachi ikki rasmni ko‘rsatadi va aytadi:

“Bolajonlar, hozir biz birgalikda kichik o‘yin o‘ynaymiz. Mana bu ikki bola turibdi. Qaysi biri to‘g‘ri kiyingan, qaysi biri noto‘g‘ri?”

Bolalar javob beradi.

2. Tarbiyachi savollar bilan faollikni oshiradi:

- “Nega bu bola tartibli deb o‘ylayapsiz?”
- “Bu rasmdagi bolaning kiyimida qanday kamchilik bor?”
- “Agar tugmangiz yechilib qolsa, nima qilasiz?”
- “Agar paypoqni noto‘g‘ri kiyib qo‘ysangiz, o‘zingiz to‘g‘rilay olasizmi?”

Bu savollar bolalarning fikrlashini faollashtiradi.

3. Mini-vazifa: “Kiyimni to‘g‘rilab ber”

Tarbiyachi bir kichik qo‘g‘irchoqning kiyimlarini noto‘g‘ri kiydirib ko‘rsatadi:

– *yoqasi qayrilgan*

– *tugmalari noto‘g‘ri qadalgan*

– *paypoq noto‘g‘ri kiyilgan*

“Bolajonlar, kim bu bolaga yordam beradi? Kiyimlarini qanday to‘g‘rilash kerak — birgalikda ko‘rsatamiz!”

Bir-ikki bola chiqib, qo‘g‘irchoqdagi kiyimni to‘g‘rilaydi.

Tarbiyachi: Bolajonlar, kelinglar endi kiyinish odobi haqida bir video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Kiyinish odobiga oid 7 eslatma

Kiyinish odobiga oid 7 eslatma



SAVOLLAR:

1. Bolajonlar, bugungi suhbatimiz qanday mavzuda bo'ldi?
2. Qanday kiyinish kerak ekan?
3. Kiyimlarni taxlab qo'yish qanday odat?
4. Odobli bolalar qanday kiyinadilar, kiyimlarini qanday saqlaydilar?

Bolalar javobi

YOD OLISH UCHUN SHE'R

D.Nasrullayeva

Kiyimlarim asrayman,
Sira ham kir qilmayman.
Javonimga bittalab,
Hammasini taxlayman.
Tugmam turar joyida,
Paypoq poyi – poyida
Ko'ylak menga yarashar,

Havas bilan qarashar.

Kiyinish odobini

Juda yaxshi bilaman.

Mendan o‘rnak olishar,

Men ozoda bolaman.